ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG‘BATLANTIRISHDA DAVLATNING O‘RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li	
SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O‘RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o‘g‘li	



SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O'RNI

Xurramov Azizbek Muxiddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi, PhD mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Soliq ma'muriyatchiligi zamonaviy iqtisodiy boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samaradorligi davlat budjeti barqarorligi va tadbirkorlik muhitining raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolada soliq ma'muriyatchiligining nazariy mohiyati, uning iqtisodiy muvozanat va xususiy sektor faoliyatiga ta'siri, shuningdek, soliq tizimining soddaligi va shaffofligi orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishda raqamlashtirish, riskga asoslangan boshqaruv, xalqaro standartlar hamda xizmatga yo'naltirilgan boshqaruv tamoyillarining roli yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali soliq boshqaruvi, prognoz qilinadigan fiskal siyosat va ijtimoiy ishonch kapitali tadbirkorlik subyektlarining rasmiy sektorda faoliyat yuritishiga, shuningdek, iqtisodiy o'sish va budjet barqarorligining ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: soliq ma'muriyatchiligi, soliq tizimi, tadbirkorlik muhiti, fiskal siyosat, raqamlashtirish, iqtisodiy ishonch, budjet barqarorligi, soliq islohotlari, xalqaro tajriba, riskga asoslangan nazorat, iqtisodiy o'sish.

Abstract. Tax administration is an important component of the modern economic management system, and its effectiveness directly affects the stability of the state budget and the competitiveness of the business environment. This article analyzes the theoretical essence of tax administration, its impact on economic balance and private sector activity, as well as mechanisms for improving the business environment through the simplicity and transparency of the tax system. It also highlights the role of digitalization, risk-based management, international standards, and service-oriented management principles in improving tax administration. The results of the study show that effective tax administration, predictable fiscal policy, and social trust capital contribute to the operation of business entities in the formal sector, as well as to ensuring economic growth and budget stability.

Key words: tax administration, tax system, business environment, fiscal policy, digitalization, economic trust, budget stability, tax reforms, international experience, risk-based control, economic growth.

Аннотация. Налоговое администрирование является важным компонентом современной системы управления экономикой, а его эффективность напрямую влияет на стабильность государственного бюджета и конкурентоспособность деловой среды. В данной статье анализируются теоретическая сущность налогового администрирования, его влияние на экономическое равновесие и активность частного сектора, а также механизмы улучшения деловой среды посредством простоты и прозрачности налоговой системы. Также освещается роль цифровизации, риск-ориентированного управления, международных стандартов и принципов сервисно-ориентированного управления в совершенствовании налогового администрирования. Результаты исследования показывают, что эффективное налоговое администрирование, предсказуемая налогово-бюджетная политика и социальный доверительный капитал способствуют функционированию хозяйствующих субъектов в формальном секторе, а также обеспечению экономического роста и бюджетной стабильности.

Ключевые слова: налоговое администрирование, налоговая система, деловая среда, налогово-бюджетная политика, цифровизация, экономическое доверие, бюджетная стабильность, налоговые реформы, международный опыт, риск-ориентированный контроль, экономический рост.

KIRISH

Soliq ma'muriyatchiligi zamonaviy iqtisodiy boshqaruv tizimining markaziy elementi bo'lib, u soliq qonunchiligiga muvofiq ravishda tadbirkorlik subyektlari va davlat o'rtasida shakllanadigan fiskal munosabatlarni tartibga solish, nazorat qilish hamda ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tizimli jarayonni ifodalaydi. U, mohiyatan, soliq siyosatini amalga oshirishning tashkiliy, uslubi va protsessual asoslarini o'z ichiga olgan murakkab boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Soliq ma'muriyatchiligi tizimi davlatning vakolatlari



ijro organlari – soliq idoralari tomonidan amalga oshiriladi hamda soliq huquqining amalda qo'llanishini, budget barqarorligini va tadbirkorlik subyektlarining soliq majburiyatlarini bajarish madaniyatini ta'minlaydi.

Bugungi sharoitda soliq ma'muriyatchiligining iqtisodiy ahamiyati faqat budget daromadlarini shakllantirish bilan cheklanmay, balki tadbirkorlik muhitining barqarorligi, investitsion ishonch va iqtisodiy raqobat muvozanatini saqlash bilan ham chambarchas bog'liqdir. Soliq ma'muriyatchiligining izchil va shaffof faoliyati iqtisodiyotning sog'lom o'sishini ta'minlaydi, aksincha, haddan tashqari byurokratik yoki murakkab tizim esa yashirin iqtisodiyot va soliqdan qochish holatlariga zamin yaratadi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda soliq ma'muriyatchiligi tizimi raqamlashtirish, risk tahliliga asoslangan nazorat, xizmatga yo'naltirilgan boshqaruv va xalqaro standartlarga moslashtirish orqali tubdan takomillashtirilmoqda.

Soliq ma'muriyatchiligi tadbirkorlik faoliyati uchun muhim tashkiliy-institutsional infratuzilmani yaratadi. Aynan soliq boshqaruvining qulayligi, barqarorligi va prognoz qilinadiganligi biznes uchun "iqtisodiy ishonch kapitali"ni shakllantiradi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi ishonch, o'zaro manfaatlar muvozanati hamda soliq qonunchiligining izchilligi soliq ma'muriyatchiligining sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi omillardir. Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik muhitining rivojlanishida soliq ma'muriyatchiligi bosh omil sifatida maydonga chiqadi - u biznesni legallashtirish, soliqqa ixtiyoriy muvofiqlikni oshirish va raqobat uchun teng sharoit yaratish orqali iqtisodiyotning institutsional barqarorligini mustahkamlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqotda soliq ma'muriyatchiligining samaradorligi va uning tadbirkorlik muhitiga ta'siri masalalari bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, iqtisodiy nazariyalar hamda amaliy tadqiqotlar o'rganildi. Adabiyotlarda soliq ma'muriyatchiligining iqtisodiy faoliyatga ta'siri borasida ikki asosiy yondashuv mavjud: birinchisi - soliq nazoratining kuchayishi fiskal barqarorlikni oshiradi, ikkinchisi - soliq yukining soddalashuvi va ixtiyoriy to'lov tizimining rivoji tadbirkorlikni kengaytiradi.

Masalan, R. Bird va D. Slack rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilib, soliq tizimini soddalashtirish, mahalliy fiskal mustaqillikni kuchaytirish va soliq bazasini kengaytirish zarurligini ta'kidlagan. W. Fischel o'zining "Homevoter Hypothesis" modeli orqali soliq siyosatining ijtimoiy manfaatlar bilan bog'liqligini tahlil qilgan - ya'ni fuqarolarning soliqqa munosabati ularning iqtisodiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Musgrave va Tanzi esa davlatning fiskal siyosati va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka e'tibor qaratgan. Ularning fikricha, samarali soliq boshqaruvi milliy iqtisodiyotning barqarorligini va biznes uchun qulay makroiqtisodiy muhitni ta'minlaydi.

Mahalliy olimlardan F.I. Isayev, U.T. To'lakov, Sh. M. G'aniev va B. Qodirov Z.Ahrorovlar tomonidan O'zbekiston sharoitida soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, soliq nazoratini optimallashtirish va soliq to'lovchilar bilan o'zaro ishonch tizimini yaratish bo'yicha ilmiy ishlanmalar olib borilgan. Ayniqsa, "riskga asoslangan soliq nazorati" mexanizmining joriy etilishi hamda soliq organlarining servis funksiyalarini kengaytirish bo'yicha ularning ilmiy xulosalari dissertatsiyaning nazariy poydevorini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, nazariy-tahliliy, statistik, iqtisodiy modellashirish va ekspert baholash usullari uyg'unlashtirildi. Metodologik asos sifatida soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholovchi xalqaro indikatorlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Tax Administration Comparative Series", Jahon bankining "Paying Taxes" hamda "Doing Business" reytinglaridagi ko'rsatkichlardan foydalanildi. Tahlil davomida soliq boshqaruvining raqamlashtirish darajasi, tadbirkorlik faoliyatining rasmiy sektorga jalb etilishi, shuningdek, soliq ishonchi indeksining o'zgarishi asosiy ko'rsatkichlar sifatida olindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, soliq ma'muriyatchiligining soddalashuvi va shaffofligi ixtiyoriy soliq to'lovlar darajasini oshiradi hamda tadbirkorlik muhitida barqarorlikni ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida soliq ma'muriyatchiligi iqtisodiy xavfsizlik va barqaror rivojlanishning asosiy komponentlaridan biri sifatida qaralmoqda. Raqamli iqtisodiyot, global raqobat va iqtisodiy inqirozlar fonida davlatlar soliq boshqaruvini transformatsiya qilmoqda - bu jarayon tadbirkorlik muhiti sifatini belgilovchi hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Xalqaro tajribada soliq boshqaruvi endi "nazorat tizimi" sifatida emas, balki "iqtisodiy xizmat" sifatida talqin etilmoqda.


O'zbekiston uchun ham bu yo'nalish strategik ahamiyatga ega. So'nggi yillarda soliq tizimining ochiqligi va soddaligi oshirilmoqda, soliqqa tortish mexanizmlari raqamlashtirilgan, tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etilgan. Risk tahliliga asoslangan nazorat tizimi tekshiruvlar sonini 40 foizga kamaytirgan, bu esa biznesga bosimni kamaytirib, ixtiyoriy to'lovlarni oshirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, soliq



ma'muriyatchiligi endi faqat fiskal tushumlarni emas, balki tadbirkorlikning o'sish dinamikasini ham monitoring qiladi.

Soliq ma'muriyatchiligi va tadbirkorlik muhitining o'zaro aloqasi iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Tizim qanchalik shaffof va prognoz qilinadigan bo'lsa, iqtisodiy subyektlar faoliyati shunchalik barqaror bo'ladi. Aksincha, soliq siyosatidagi noaniqliklar, ko'p bosqichli jarayonlar yoki ortiqcha reglamentlar yashirin iqtisodiyotning kengayishiga olib keladi. Shu sabab, soliq ma'muriyatchiligi davlat va tadbirkorlik o'rtasida barqaror "iqtisodiy muvozanat"ni saqlovchi boshqaruv mexanizmiga aylanishi zarur.

Shunday qilib, soliq ma'muriyatchiligi - bu nafaqat soliq munosabatlarini tartibga soluvchi tizim, balki tadbirkorlik muhitining sifati, iqtisodiy ishonch va milliy raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi bosh omildir. Uning takomillashuvi iqtisodiy xavfsizlik, fiskal barqarorlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayanadi.



1-rasm. Tadbirkorlik muhiti bilan o'zaro aloqada bo'lgan soliq ma'muriyatchiligi tizimining konseptual modeli¹

Sanab o'tilgan elementlarning har biri institutsional iqtisodiyotning tashkiliy-huquqiy asosini ifodalovchi "rasmiy va norasmiy qoidalar" to'plamini qo'llashni nazarda tutadi.

Barqaror va xavfsiz rivojlanish modelining ishlashini ta'minlash quyidagi turlarga ega:

uslubiy ta'minot, uning asosida tanlangan (yoki qurilgan) modelning mantiqiy sxemasi, uni tashkil etish tamoyillari, tizimning barqaror va xavfsiz rivojlanishini boshqarish usullari va vositalari tizimi shakllantirilishi mumkin;

¹ Muallif tomonidan tuzilgan



iqtisodiy xavfsizlik yo'nalishiga (yoki tipologik turiga), muayyan hudud yoki aniq xo'jalik yurituvchi sub'yekt - soliq to'lovchi iqtisodiyotining holatini baholashning tanlangan usullariga qarab tasnifiy bo'linishi mumkin bo'lgan indikatorlar yig'indisidan iborat bo'lgan diagnostik ta'minot;

muayyan hudud yoki muayyan xo'jalik yurituvchi sub'yektning barqaror va xavfsiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar guruhini, ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, mexanizmlarni tahlil qilishni o'z ichiga olgan tahliliy ta'minot;

barqaror iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va indikatorlarini prognoz qilish, tahlil qilish va baholash vositalari asosida shakllantirilgan mumkin bo'lgan proseduralar, usullar, algoritmlar, modellarni qamrab oluvchi nazorat-natijaviy ta'minot va boshqalar.

Iqtisodiyotning turli sohalar va tarmoqlarini ko'plab tahdidlardan himoya qilish mexanizmlarining keng diapazoni iqtisodiy xavfsizlikning tipologik turlarini aniqlashtirishga imkon beradi, undan iqtisodiy xavfsizlikning mustaqil turi sifatida budjet-soliq xavfsizligini ajratib ko'rsatadi. Bunday qarashni tasdiqlash uchun budjet va soliq tizimlarining mutanosibligi to'g'risidagi ma'lum qoidalarni keltirish mumkin, ular quyidagilardan iborat:

budjet tizimiga to'lanadigan soliqlar budjetning daromad qismini – "soliq daromadlari"ni shakllantiradi;

budjet daromadlari hokimiyat organlarining davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xarajat majburiyatlarini qoplashi kerak.

Mahalliy budjetlarning mulkiy soliqlari hisobidan shakllanadigan daromadlari budjet tizimi va hududlar ijtimoiy barqarorligini ta'minlab, davlat xizmatlarini to'liq ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Soliq daromadlari budjetga tushmay qolgan taqdirda hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, ya'ni budjet soliq xavfsizligiga va uning mustaqil tipologik kichik turi sifatida soliq xavfsizligiga tahdid yuzaga keladi.

Soliq xavfsizligi kategoriya sifatida va iqtisodiy xavfsizlikning tipologik turi sifatida tadqiqotchilar tomonidan keng muhokama qilinadi, boshqaruvning darajali tizimiga to'liq mos keladigan ta'rif va tavsiflarni o'z ichiga oladi hamda tizimlarning rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti (omili) sifatida qaraladi. Shunday qilib, makrodarajada soliq xavfsizligi "davlat soliq siyosatini amalga oshirishni, milliy iqtisodiyot va davlat budjetining mustaqilligini, tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganligini, barcha sohalar, tarmoqlar va iqtisodiy faoliyat turlarining barqaror iqtisodiy o'sishga chidamliligini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar majmuasi" sifatida belgilanadi. Hududiy darajada esa «hududda soliq siyosatini amalga oshirishni, soliq daromadlarining o'z vaqtida va to'liq kelib tushishi hisobiga mahalliy budjetni shakllantirishni, xavfsiz va barqaror rivojlanishni ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar majmuasi» deb ta'riflanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt (soliq to'lovchi) darajasida esa "xo'jalik yurituvchi sub'yektning barcha faoliyat sohalarida xavfsiz va barqaror rivojlanishini hamda soliq to'lovchi sifatidagi majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish, budjetga soliqlar va yig'implarni to'lash imkoniyatini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar majmuasi" sifatida tushuniladi [21].

Soliq xavfsizligini, iqtisodiy xavfsizlikning boshqa har qanday tipologik turi singari, soliqqa tortishning muayyan sohasini boshqarishning ma'lum bir yo'nalishi bilan bog'lash mumkin. Bizning holatimizda bunday boshqarish ob'yekti bo'lib, biz ishning oldingi bo'limlarida mohiyati va mexanizmiga murojaat qilganimiz mulkiy soliqqa tortish hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda soliq xavfsizligiga nisbatan quyidagi xususiyatlar ajratib ko'rsatilgan:

birinchidan, soliq xavfsizligini nazariyada mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida, uning mazmuniga ta'sir ko'rsatuvchi turli ilmiy sohalarining sinergetik o'zaro bog'liqligi tarzida, hamda klassik iqtisodiy va soliq nazariyalari, metodologik vositalar va ularni qo'llash amaliyotining rivojlanish tendensiyalari bilan belgilangan alohida ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etish;

ikkinchidan, soliq xavfsizligi amaliy faoliyat sohasi sifatida. Soliq xavfsizligini amalga oshirish milliy xavfsizlikning huquqiy maydoni doirasida, shuningdek davlat va uning hududlari faoliyatining iqtisodiy strategik yo'nalishlarining asosiy yo'nalishlari doirasida amalga oshiriladi. Soliq xavfsizligini ta'minlash uchun davlatning soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari ishlab chiqiladi, soliq ma'muriyatchiligi tizimi, soliqlar tizimi, soliq organlari, soliq qonunchiligi takomillashtiriladi, bu, umuman olganda, soliq muhitining qulayligini va makrodarajada soliq to'lovchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning barqaror rivojlanishi hamda davlat va uning hududlarini makrodarajada barqaror rivojlantirish imkoniyatini belgilaydi;

uchinchidan, soliq xavfsizligi kategoriya sifatida. U davlat faoliyatining soliq sohasini tartibga solish imkoniyatini ta'minlovchi "o'zaro uzviy aloqadorlikka ega bo'lgan ob'yektiv va sub'yektiv asoslar" bilan shartlanadi. Soliq xavfsizligining toifaviy belgilarini umumlashtirgan holda uni quyidagicha tavsiflash mumkin:

davlat, jamiyat va shaxsning barqaror va xavfsiz rivojlanishini ta'minlovchi soliq fanining turli yo'nalishlari nazariyasi va metodologiyasini rivojlantirishni o'z ichiga olgan ilmiy faoliyat sohasi;

davlat darajasida va soliq to'lovchilar darajasida soliq xavfsizligiga tahdidlarga qarshi kurashish va soliq tavakkalchiliklarini bartaraf etish kuchlari, vositalari va usullari bilan amalga oshiriladigan soliq xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amaliy faoliyat.



Tashqi va ichki omillar ta'sirida shakllanadigan soliq xavfsizligiga tahdidlar quyidagilardir: budgetning soliq daromadlari bilan ta'minlanmaganligi, soliq bazasining jismoniy hajmi saqlanmaganligi, biznesga haddan tashqari soliq yuki va boshqalar.

Soliq xavfsizligini hududiy va xo'jalik yurituvchi sub'yekt – soliq to'lovchi darajasiga nisbatan tadqiq etish tadqiqot usullarini ishlab chiqish, ko'rsatkichlar tizimini, ularning chegaraviy qiymatlarini aniqlash va soliq xavfsizligi darajasini baholash algoritmini tuzishni taqozo etadi.

Turli darajadagi sub'yektlarning soliq xavfsizligini tadqiq etishning uslubiy vazifalarini tanlangan tadqiqot algoritmgiga xos ketma-ketlikda tuzish kerak, u quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

soliq xavfsizligiga tahdidlarni miqdor va sifat jihatidan baholash. Bunday baholash usullari tahdidlarning namoyon bo'lish darajasini sifat jihatidan baholashni, soliq xavfsizligiga tahdidlarning turli ko'rsatkichlarga (indikatorlarga) ta'sirini miqdoriy baholashni amalga oshirishga imkon beradigan klassik usullar bo'lishi mumkin

hududlar va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni barqaror rivojlantirish, shuningdek maxsus usullar va modellar; tahdidlarni bartaraf etish yoki ularning soliq xavfsizligiga ta'sir darajasini kamaytirish bo'yicha olingan miqdoriy va sifat baholari asosida chora-tadbirlar va tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

tashqi va ichki omillar hamda soliq xavfsizligiga tahdidlar ta'sirining shakllangan variantlari asosida hudud yoki sub'yektni yanada rivojlantirish ssenariysini ishlab chiqish.

Soliq xavfsizligini diagnostika qilish uchun aniq va aniqlangan tahdidlarni zararsizlantirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini va yashirin xususiyatga ega tahdidlarni ekspert baholash uchun yo'nalishlarni o'z ichiga olgan mahalliy dasturiy-maqсадli tizimlar shakllantirilishi mumkin. Soliq xavfsizligini diagnostika qilish usuli sifatida indikativ tahlil xizmat qilishi mumkin, uning tartib-taomillarini amalga oshirish soliq solish nuqtayi nazaridan barqaror va xavfsiz rivojlanish uchun belgilovchi bo'lgan sub'yekt rivojlanishining indikativ ko'rsatkichlarining chegaraviy darajalarini aniqlashga asoslanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan fiskal islohotlarning markazida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalasi turibdi. So'nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimida ro'y bergan chuqur o'zgarishlar soliq siyosatini faqat daromad yig'ish vositasi sifatida emas, balki iqtisodiy rivojlanish, investitsion jozibadorlik va tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini ta'minlovchi strategik instrument sifatida ko'rishga imkon berdi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligi bevosita tadbirkorlik muhiti sifati, iqtisodiy ishonch darajasi va davlatning fiskal barqarorligi bilan uzviy bog'liqdir.

Birinchidan, soliq ma'muriyatchiligi nazariy jihatdan iqtisodiy boshqaruv tizimining o'ziga xos tarmog'i bo'lib, u soliq siyosatining amalda qo'llanish mexanizmlarini ifodalaydi. Uning asosiy mohiyati - soliqqa oid qonunchilik talablarini ijro etish, soliqqa tortish jarayonlarini shaffof, izchil va prognoz qilinadigan shaklda tashkil etishdir. Shu ma'noda, soliq ma'muriyatchiligi davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda "operatsion mexanizm" vazifasini bajaradi. U soliq siyosatining normativ bazasi, institutsional boshqaruv tuzilmalari, raqamli texnologiyalar va soliq to'lovchilar xulq-atvori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari soliq ma'muriyatchiligining samaradorligi bilan tadbirkorlik muhitining barqarorligi o'rtasida kuchli korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Raqamlashtirish, risk tahliliga asoslangan nazorat va xizmatga yo'naltirilgan boshqaruv kabi zamonaviy yondashuvlar soliq tizimini soddalashtirib, biznes uchun qulay sharoit yaratmoqda. Masalan, soliq hisobotlarini elektron tarzda topshirish ulushi 98 foizga yetgani, tekshiruvlar sonining 40 foizga qisqargani va 300 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlarining rasmiy sektorga o'tganligi bu islohotlarning amaliy natijasidir. Bu esa soliq ma'muriyatchiligi tizimida "nazoratdan hamkorlikka o'tish" bosqichining muvaffaqiyatli kechayotganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, xalqaro tajriba tahlili (Singapur, Estoniya, Kanada, Koreya) shuni ko'rsatdiki, samarali soliq ma'muriyatchiligi quyidagi ustun tamoyillarga asoslanadi: shaffoflik, ixtiyoriy muvofiqlik, xizmat madaniyati, raqamli integratsiya va institutsional ishonch. Bu model O'zbekiston uchun ham strategik yo'nalish sifatida tanlangan bo'lib, milliy soliq tizimi asta-sekin ushbu global standartlarga moslashmoqda. Shu jihatdan, O'zbekistonning soliq siyosati "Soliq ma'muriyatchiligi 3.0" (Tax Administration 3.0) konsepsiyasiga yaqinlashmoqda -ya'ni, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven governance) tamoyili asosida ishlaydigan, inson omilini kamaytirgan, avtomatlashtirilgan fiskal tizim shakllanmoqda.

To'rtinchidan, soliq ma'muriyatchiligi tizimining rivojlanishida raqamli texnologiyalar bilan bir qatorda ijtimoiy ishonch kapitalining o'sishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik subyektlarining soliqqa ixtiyoriy muvofiqlik darajasi ularning davlatga bo'lgan ishonchi bilan bevosita bog'liq. Shu bois soliq boshqaruvida "jazolovchi nazorat"dan "hamkorlikka asoslangan nazorat"ga o'tish jarayoni davom ettirilishi lozim.

Beshinchidan, soliq ma'muriyatchiligining rivojlanish bosqichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, u hozirgi davrda "raqamli transformatsiya" bosqichiga kirgan. Avtomatik ma'lumot almashinuvi, sun'iy intellekt asosida risk tahlili, elektron kassa mashinalari va onlayn hisob-faktura tizimlarining keng joriy etilishi bu jarayonning ishonchli



dalilidir. Bu esa soliq to'lovchilar uchun qulaylik, soliq organlari uchun tezkor tahlil va davlat uchun barqaror daromad manbai yaratadi.

Oltinchidan, soliq ma'muriyatchiligining samaradorligi iqtisodiy xavfsizlik bilan ham uzviy bog'liqdir. Tizimdagi shaffoflik, korrupsiyaga qarshi mexanizmlar, institutsional javobgarlik va soliq siyosatining izchilligi milliy iqtisodiy xavfsizlikning muhim omillaridan biridir. Shu sabab, O'zbekiston uchun soliq ma'muriyatchiligi endilikda nafaqat fiskal mexanizm, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy ishonchni ta'minlovchi strategik boshqaruv tizimi sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.07.2017-yildagi Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-5116-son.
2. Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: Methuen & Co.
3. Ricardo, D. (1817). *On the Principles of Political Economy and Taxation*. London: John Murray.
4. George, H. (1879). *Progress and Poverty: An Inquiry into the Cause of Industrial Depressions and of Increase of Want with Increase of Wealth: The Remedy*. New York: Appleton & Co.
5. Tiebout, C. M. (1956). A Pure Theory of Local Expenditures. *Journal of Political Economy*, 64(5), 416-424.
6. Bird, R. M., & Slack, E. (2004). *International Handbook of Urban Systems: Studies of Urbanization and Migration*. Edward Elgar Publishing.
7. Fischel, W. A. (2001). *The Homevoter Hypothesis: How Home Values Influence Local Government Taxation, School Finance, and Land-Use Policies*. Harvard University Press.
8. Bahl, R., & Linn, J. (1992). *Urban Public Finance in Developing Countries*. Oxford University Press.
9. Musgrave, R. A. (1959). *The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy*. McGraw-Hill.
10. Tanzi, V., & Zee, H. H. (2000). *Tax Policy for Emerging Markets: Developing Countries*. International Monetary Fund (IMF).
11. Stiglitz, J. E. (2015). *The Price of Inequality: How Today's Divided Society Endangers Our Future*. W. W. Norton & Company.
12. To'lakov, U.T., (2021). Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlarni takomillashtirish. "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali, 1(2), 425-435.
13. To'lakov, U.T., (2021). Mol-mulk solig'i stavkalarini belgilashning o'ziga xos xususiyatlari. "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali, 1(5), 286-297.
14. To'lakov, U. (2025). Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari., 5(1), 91-105.
15. To'lakov, U.T. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirishning xorij tajribasi. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 4(03), 3-12.
16. To'lakov, U.T. (2024). Samarali soliq ma'muriyatchiligini ta'minlashning nazariy va konseptual asoslari. "Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq-budjet siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami, 32-34.
17. To'lakov, U.T. (2023). Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishish usullari. "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, 44-47.
18. Мишустина, М.В. *Налоги и налоговое администрирование: учебник*. – Москва: Просвещение, 2015. – 912 с.
19. Сенчагова, В.К. *Инновационные преобразования как императив устойчивого развития и экономической безопасности России*. – Москва: Анкил, 2013. – 688 с.
20. Степашина, С.В. *Экономическая безопасность Российской Федерации: учебник для вузов*. – Санкт-Петербург: Лань, 2001. – 608 с.
21. Ханафеева, Ф.Ф. *Налоговое администрирование: учебник*. – Йошкар-Ола: Стринг, 2013. – 418 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>